

**RAQAMLI TO'LOVLAR, ONLAYN-NAZORAT KASSA APPARATLARI
VA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING YASHIRIN SAVDO
AYLANMASINI KAMAYTIRISHDAGI SAMARADORLIGI**

Shavkatov Otabek

Mustaqil tadqiqotchi

Elektron pochta: Otabekshavkatovyki@gmail.com

Annotatsiya. *Tezisdan raqamli to'lov vositalari, onlayn-nazorat kassa apparatlari va raqamli soliq ma'muriyatchiligi vositalarining yashirin savdo aylanmasini qisqartirishdagi samaradorligi tahlil qilinadi. Naqd pulsiz to'lovlarning tarqalishi bitimlarning izlanuvchanligini oshirish orqali aylanmani yashirish imkoniyatini qanday cheklashi, onlayn kassa apparatlarining fiskal ma'lumotlarni real vaqt rejimida uzatish mexanizmi va uning nazorat imkoniyatlari ochib berilgan. Elektron hisob-fakturalar, elektron tovar belgilash (markirovka) va tavakkalchilikni boshqarish tizimlarining o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, texnologik vositalarning cheklovlari — chek bermaslik, kassa apparatini chetlab o'tish, to'lovni jismoniy shaxs kartasiga qabul qilish va uskunani texnik manipulyatsiya qilish — aniqlanib, ularni bartaraf etishning tashkiliy va iqtisodiy choralari taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *raqamli to'lovlar, onlayn-nazorat kassa apparati, fiskal ma'lumotlar, soliq ma'muriyatchiligi, yashirin savdo aylanmasi, elektron hisob-*

faktura, tovar belgilash, tavakkalchilikni boshqarish, naqd pulsiz hisob-kitob, soliq bo'shlig'i.

**ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖЕЙ, ОНЛАЙН-
КОНТРОЛЬНО-КАССОВЫХ АППАРАТОВ И НАЛОГОВОГО
АДМИНИСТРИРОВАНИЯ В СОКРАЩЕНИИ ТЕНЕВОГО
ТОРГОВОГО ОБОРОТА**

Шавкатов Отабек

Независимый исследователь

Электронная почта: Otabekshavkatovykj@gmail.com

Аннотация. В статье анализируется эффективность цифровых платёжных инструментов, онлайн-контрольно-кассовых аппаратов и цифровых инструментов налогового администрирования в сокращении теневого торгового оборота. Раскрыто, каким образом распространение безналичных платежей ограничивает возможности сокрытия оборота за счёт повышения прослеживаемости сделок, а также рассмотрен механизм передачи фискальных данных онлайн-кассами в режиме реального времени и его контрольный потенциал. Проанализирована взаимосвязь электронных счетов-фактур, цифровой маркировки товаров и систем управления рисками.

Одновременно выявлены ограничения технологических инструментов — невыдача чека, обход кассового аппарата, приём оплаты на карту физического лица, техническая манипуляция оборудованием — и предложены организационные и экономические меры их устранения.

Ключевые слова: цифровые платежи, онлайн-контрольно-кассовый аппарат, фискальные данные, налоговое администрирование, теневой торговый оборот, электронный счёт-фактура, маркировка товаров, управление рисками, безналичные расчёты, налоговый разрыв.

THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL PAYMENTS, ONLINE CASH REGISTERS AND TAX ADMINISTRATION IN REDUCING SHADOW RETAIL TURNOVER

Shavkatov Otabek

Independent researcher

E-mail: Otabekshavkatovykj@gmail.com

Abstract. The article analyses the effectiveness of digital payment instruments, online cash registers, and digital tax administration tools in reducing shadow retail turnover. It explains how the spread of cashless payments restricts opportunities for concealing turnover by increasing the traceability of transactions,

and examines the mechanism by which online cash registers transmit fiscal data in real time and its control potential. The interrelation of electronic invoices, digital product marking, and risk-management systems is considered. At the same time, the study identifies the limits of technological instruments — failure to issue receipts, bypassing the cash register, accepting payment to an individual's card, and technical manipulation of equipment — and proposes organisational and economic measures to address them.

Keywords: digital payments, online cash register, fiscal data, tax administration, shadow retail turnover, electronic invoice, product marking, risk management, cashless settlement, tax gap.

KIRISH. Yashirin savdo aylanmasi — chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida amalga oshirilgan, ammo rasmiy hisobda aks ettirilmagan bitimlar majmui bo'lib, u qo'shilgan qiymat solig'i va aylanma solig'i bo'yicha byudjet yo'qotishlarining asosiy manbalaridan biridir. An'anaviy nazorat usullari — reytd tekshiruvlari va tanlanma auditlar — bu hodisani qamrab olishda cheklangan samaradorlikka ega, chunki ular vaqt jihatidan nuqtaviy va qamrov jihatidan tor [5].

So'nggi o'n yillikda soliq ma'muriyatchiligida texnologik burilish yuz berdi: bitim to'g'risidagi ma'lumot uni tekshirish uchun emas, uning sodir bo'lish paytida avtomatik qayd etish uchun to'planadigan bo'ldi. Onlayn-nazorat kassa apparatlari, elektron hisob-fakturalar, raqamli to'lov tizimlari va tovarlarni belgilash mexanizmi birgalikda aylanmani uzluksiz kuzatish infratuzilmasini shakllantiradi [8].

Tadqiqotning maqsadi — raqamli to'lov vositalari, onlayn kassa apparatlari va raqamli soliq ma'muriyatchiligining yashirin savdo aylanmasini qisqartirishdagi samaradorligini baholash, ularning cheklovlarini aniqlash va samaradorlikni oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Metodologik asos sifatida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik va institutsional yondashuv qo'llanilgan.

Ilmiy yangiligi — texnologik vositalarning samaradorligini “qamrov — izlanuvchanlik — rag'bat” uch mezonli tizim asosida baholash yondashuvini taklif etish va aynan rag'bat komponentining yetishmasligi natijadorlikni cheklovchi asosiy omil ekanligini asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Naqd pulsiz to'lovning yashirin aylanmani cheklovchi ta'siri izlanuvchanlik (traceability) tamoyiliga asoslanadi: har bir bitim uchinchi tomon — to'lov tizimi va bank — hisobida qayd etiladi va uni keyinchalik inkor etish qiyinlashadi [10]. Naqd pul esa anonim bo'lib, uning aylanishi hech qanday markazlashgan hisobda aks etmaydi; aynan shu xususiyat uni yashirin bitimlar uchun qulay vositaga aylantiradi [11].

Bu bog'liqlik bir tomonlama emas. Naqd pulsiz to'lovlar ulushining ortishi yashirin aylanmani avtomatik ravishda kamaytirmaydi: agar sotuvchi to'lovni jismoniy shaxs kartasiga qabul qilsa, bitim texnik jihatdan naqd pulsiz bo'lsa-da, savdo aylanmasi sifatida hisobga olinmaydi. Demak, hal qiluvchi omil to'lov shakli emas, balki to'lovning fiskal hisob bilan bog'lanishidir.

Xalqaro tadqiqotlar naqd pulsiz to'lovlar ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha bo'shliqning nisbatan past ekanligini ko'rsatadi [9]. Biroq bu bog'liqlik sabab-oqibat sifatida talqin qilinishi

shart emas: to'lov infratuzilmasining rivojlanganligi ham, soliq intizomining yuqoriligi ham institutsional sifatning umumiy darajasi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda to'lov kartalari va mobil ilovalar orqali hisob-kitob hajmi so'nggi yillarda barqaror o'sib bormoqda [13]. Shu bilan birga, aholining bir qismi uchun naqd pul asosiy to'lov vositasi bo'lib qolmoqda; bunga bank xizmatlaridan foydalanish darajasi, savdo nuqtalarida to'lov terminallari qamrovi va to'lovlar uchun olinadigan komissiya xarajatlari ta'sir ko'rsatadi [12].

Onlayn-nazorat kassa apparatlarining an'anaviy kassa texnikasidan asosiy farqi shundaki, ular har bir chek to'g'risidagi fiskal ma'lumotni fiskal ma'lumotlar operatori orqali soliq organiga real vaqt rejimida uzatadi [14]. Bu esa uch imkoniyat yaratadi: aylanmani uzluksiz kuzatish; savdo nuqtalari, tarmoqlar va hududlar kesimida taqqoslama tahlil o'tkazish; hamda me'yordan chetlanishlarni avtomatik aniqlash.

Muhim afzallik — ma'lumotning o'zgartirilmasligi. Fiskal yozuv uzatilgandan so'ng uni keyinchalik tuzatish imkoni yo'qligi hisobotni sun'iy moslashtirish amaliyotini cheklaydi. Bundan tashqari, chekni xaridor tomonidan onlayn tekshirish mexanizmi jamoatchilik nazoratining oddiy, ammo samarali shakli hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, onlayn kassalar joriy etilgandan keyin chetlab o'tishning bir necha barqaror usuli shakllanadi. Birinchisi — chekni umuman bermaslik yoki xaridor talab qilmagan holatlarda bitimni kassa orqali o'tkazmaslik. Ikkinchisi — to'lovni jismoniy shaxs kartasiga yoki naqd pulda

qabul qilib, uni savdo aylanmasi sifatida rasmiylashtirmaslik. Uchinchisi — dasturiy ta'minotni manipulyatsiya qilish, ya'ni elektron sotuvni bostirish (electronic sales suppression) vositalaridan foydalanish [6].

Uchinchi usul texnik jihatdan eng murakkab, ammo eng xavfli hisoblanadi, chunki u yashirishni tizimli va uzluksiz qiladi. Unga qarshi kurashda uskuna va dasturiy ta'minotni sertifikatlashtirish, kriptografik himoya hamda uzatilgan ma'lumotlarning butunligini tekshirish mexanizmlari qo'llaniladi. Bu esa nazorat markazining texnik salohiyatiga alohida talab qo'yadi.

Kassa apparatlarining samaradorligi qamrov to'liqligiga bevosita bog'liq. Agar bozorlarda, ko'chma savdoda va mayda xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi sub'ektlar qamrovdan tashqarida qolsa, iste'molchi oqimining bir qismi shu segmentga siljiydi. Shu sababli qamrovni kengaytirish ushbu segmentlar uchun qulay va arzon texnik yechimlar — mobil ilova ko'rinishidagi kassa dasturlari — bilan ta'minlanishi lozim.

Elektron hisob-fakturalar tizimi tovar harakatining har bir bosqichini raqamli shaklda qayd etadi va yetkazib beruvchi hamda xaridor hisobotlarini avtomatik solishtirish imkonini beradi. Bu qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha eng keng tarqalgan sxemalardan biri — soxta hisob-fakturalar orqali hisobga olish summasini oshirish amaliyotini sezilarli cheklaydi [1].

Tovarlarni raqamli belgilash tizimi esa har bir mahsulot birligiga noyob identifikator berish orqali uni ishlab chiqarishdan chakana sotuvgacha kuzatish imkonini yaratadi [4]. Bu vosita ayniqsa aksiz osti tovarlar va kontrafakt mahsulot aylanmasi yuqori bo'lgan tarmoqlarda samarali. Uning cheklovi — joriy etish

xarajatlarining vijdonli tadbirkorlar zimmasiga tushishi, shu sababli bosqichma-bosqich va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy etish talab etiladi.

Raqamli vositalarning haqiqiy qiymati ma'lumot to'plashda emas, uni tahlil qilishda namoyon bo'ladi. Tavakkalchilikni boshqarish tizimi kassa ma'lumotlari, hisob-fakturalar, bank operatsiyalari, bojxona deklaratsiyalari va mehnat shartnomalari reyestrini solishtirib, huquqbuzarlik ehtimoli yuqori bo'lgan sub'ektlarni ajratib beradi [7]. Shunda nazorat resursi tanlanma emas, indikator asosida taqsimlanadi va vijdonli tadbirkorga tushadigan ma'muriy yuk kamayadi.

Bunday tizimning muvaffaqiyati uch shartga bog'liq: ma'lumotlar bazalarining o'zaro texnik integratsiyasi; indikatorlarning muntazam qayta ko'rib chiqilishi; hamda tahlil natijalarining shaffofligi, ya'ni tadbirkorga tavakkalchilik darajasi qanday shakllanganini tushuntirish imkoniyati. Oxirgi shart bajarilmasa, tizim asossiz qarorlar manbasiga aylanadi va tadbirkorlik muhitiga ishonchni pasaytiradi.

Xorijiy amaliyotda raqamli fiskallashtirishning bir necha modeli shakllangan. Birinchi model — fiskal ma'lumotlarni operator orqali real vaqtda uzatish; u nazorat samaradorligi yuqori bo'lgani bilan texnik infratuzilmaga sezilarli talab qo'yadi. Ikkinchi model — davriy ravishda elektron hisobot yuborish; u arzonroq, ammo tezkorlikni yo'qotadi. Uchinchi model — elektron hisob-fakturaning majburiy markazlashtirilgan tasdig'i; u ayniqsa yuridik shaxslar o'rtasidagi bitimlarda samarali.

Ushbu modellarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yaxshi natija ularning birortasini alohida emas, balki chakana savdo uchun real vaqtli

fiskallashtirishni, korxonalararo aylanma uchun esa elektron hisob-faktura nazoratini birgalikda qo'llashda erishiladi. Bunda ikki tizim ma'lumotlari o'zaro solishtirilishi va nomuvofiqliklar avtomatik aniqlanishi lozim.

Texnologik vositalarning samaradorligini uch mezon asosida baholash mumkin. Qamrov — vositaning iqtisodiy faoliyatning qancha qismini qamrab olishi. Izlanuvchanlik — bitim to'g'risidagi ma'lumotning qay darajada o'zgartirib bo'lmay shaklda qayd etilishi. Rag'bat — ishtirokchilarning rasmiy rasmiylashtirishdan manfaatdorlik darajasi.

O'zbekiston amaliyotida birinchi ikki mezon bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishilgan: onlayn kassalar, elektron hisob-fakturalar va raqamli to'lovlar tizimi shakllantirilgan. Uchinchi mezon esa nisbatan zaif qolmoqda: iste'molchi ko'p hollarda chek talab qilishdan bevosita manfaatdor emas, sotuvchi uchun esa chek bermaslik xarajatni kamaytiruvchi omil bo'lib qolmoqda. Aynan shu asimmetriya texnologik vositalarning potensialini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

1. Iste'molchi rag'batini kuchaytirish. Chekni ro'yxatdan o'tkazgan xaridorga soliqning bir qismini qaytarish yoki lotereya mexanizmi ko'rinishidagi rag'batlantirish tizimi iste'molchini nazorat ishtirokchisiga aylantiradi. Xalqaro tajribada bunday mexanizmlar chek berish amaliyotini sezilarli yaxshilagan.

2. To'lovni fiskal hisob bilan bog'lash. Savdo nuqtasida to'lov terminali va kassa apparatining yagona texnik zanjirda ishlashini ta'minlash, ya'ni to'lov tasdiqlanishini fiskal chek shakllanishi bilan bog'lash jismoniy shaxs kartasiga to'lov qabul qilish amaliyotini cheklaydi.

3. Mikrosegment uchun arzon yechimlar taklif etish. Bozorlar, ko'chma savdo va yakka tartibdagi xizmat ko'rsatish uchun mobil ilova ko'rinishidagi bepul yoki minimal narxdagi kassa yechimlari qamrovni kengaytiradi.

4. Ma'lumotlar integratsiyasini chuqurlashtirish. Kassa, bank, bojxona, mehnat va kommunal xizmatlar ma'lumotlarini yagona analitik platformada birlashtirish tavakkalchilik indikatorlarining aniqligini oshiradi.

5. Sanksiya siyosatini muvozanatlash. Birinchi marta sodir etilgan yengil huquqbuzarlik uchun ogohlantirish, takroriy va tizimli buzilishlar uchun esa kuchaytirilgan javobgarlik nazarda tutilishi lozim; jazoning muqarrarliligi uning og'irligidan muhimroq ta'sir ko'rsatadi.

6. Natijadorlikni muntazam o'lchash. Har bir vosita joriy etilgandan keyin qayd etilgan aylanma dinamikasi, chek soni va soliq bo'shlig'i ko'rsatkichlari bo'yicha baholanishi, natija bermagan talablar esa bekor qilinishi kerak [15].

XULOSA. Tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlar, onlayn kassa apparatlari va raqamli ma'muriyatchilik vositalari yashirin savdo aylanmasini qisqartirishning zaruriy, ammo yetarli bo'lmagan shartidir. Ular bitimlarning izlanuvchanligini oshiradi va yashirish xarajatlarini ko'taradi, biroq ishtirokchilarning rag'bat tuzilmasini o'zgartirmasa, yashirish shakllari yangi kanallarga siljiydi.

Shu sababli samarali siyosat texnologik vositalarni iqtisodiy rag'batlar bilan uyg'unlashtirishi lozim: iste'molchini chek talab qilishdan manfaatdor qilish, to'lovni fiskal hisob bilan texnik bog'lash, mikrosegment uchun rasmiylashtirish

xarajatlarini kamaytirish va nazoratni tavakkalchilik tahliliga asoslash. Aynan shunday kompleks yondashuv barqaror natija beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. — URL: <https://lex.uz/>.
2. O'zbekiston Respublikasining “To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida”gi Qonuni.
3. Nazorat-kassa texnikasini qo'llash tartibi to'g'risidagi normativ hujjatlar. — URL: <https://lex.uz/>.
4. Tovarlarni raqamli belgilash tizimi bo'yicha normativ hujjatlar. — URL: <https://lex.uz/>.
5. OECD. Technology Tools to Tackle Tax Evasion and Tax Fraud. — Paris, 2017.
6. OECD. Electronic Sales Suppression: A Threat to Tax Revenues. — Paris, 2013.
7. OECD. Tax Administration: Comparative Information Series. — Paris.
8. IMF. Digitalization and Tax Administration. — Washington, D.C.
9. European Commission. VAT Gap Report. — Brussels.

10. Immordino G., Russo F. Cashless Payments and Tax Evasion // EJPE. — 2018. — Vol. 55.
11. Rogoff K. The Curse of Cash. — Princeton University Press, 2016.
12. World Bank. Global Findex Database. — Washington, D.C.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'lov tizimlari ma'lumotlari. — URL: <https://cbu.uz/>
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi materiallari. — URL: <https://soliq.uz/>.
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari. — URL: <https://stat.uz/>.